

INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING HIMOYA QILISH MEXANIZMI

Muallif: Toshtemirov Muhammaddiyor Halimjon o'g'li

Ilmiy rahbar: Yangiboyev Norquvvat

TerDU dotsenti, Jinoyat huquqi va fuqarolik

protsessi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda rivojlanib borayotgan intellektual mulk huquqini himoya qilish dolzarb masalardan biriga aylanmoqda. Maqola intellektual mulk huquqini himoya qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasi keng qamrovli islohotlarini va uning xalqaro huquqiy normalar bilan ham tartibga solinganligini ta'kidlaydi. Intellektual mulk huquqini himoya qilish mexanizmi haqida to'g'ri tushunchalar berish uchun, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining intellektual mulk sohasidagi faoliyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Intellektual faoliyat, himoya mexanizmi, Intellektual mulk markazi, Xitoy intellektual mulk idorasi, BIMT.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida, Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi hamda madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi deb belgilab qo'yilgan. "Intellekt" so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "aql" degan ma'noni bildiradi. Inson o'zining aqli bilan, boshqa tirik mavjudotlardan ajralib turadi. Jamiyat rivojlanib borishidagi o'zgarishlar ham insonning aynan aqliy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Ma'lumki, intellektual faoliyat eng tez rivojlanib borayotgan jarayon hisoblanadi. Yuksak sur'atlar bilan davom etayotgan bu jarayon natijasida intellektual faoliyatning yangi mahsullari vujudga kelmoqda.¹ Insonning aqliy faoliyat natijalari takrolanmas hodisadir, uning kelgusida qanday natija ko'rsatishi oldindan ma'lum bo'lmaydi. Ijodiy faoliyat (aqliy, tafakkur) intellektual faoliyat bo'lib, uning natijasida fan, texnika, adabiyot yoki san'at sohasida yangi, ijodiy mustaqil mahsul yaratiladi² va ushbu mahsul moddiy yoki nomoddiy ko'rinishda o'z aksini topadi. Intellektual mulk obyektlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- intellektual faoliyat natijalari;
- fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar;

¹ Омон ОҚЮЛОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК ҲУКУКИ. И.М.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти. Тошкент, 2005 йил, -12-бет.

² Ionas V. L., Proizvedenie tvorchestva v grajdanskom prave. M., 197

● qonunlarda nazarda tutilgan intellektual faoliyatning boshqa natija va vositalari .

Intellektual mulk huquqi bugungi kunda fuqarolik huquqi bilan tartibga solingan bo'lib, ushbu faoliyatning huquqiy muhofazasi dolzarb masalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1032-moddasida aynan shu Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofaza qilinish asoslari belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofazasi ularning yaratilganlik fakti asosida yoki Fuqarolik kodeksi hamda boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolat berilgan davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi natijasida yuzaga keladi. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yurtimizda intellektual mulk sohasidagi vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hisoblanadi. Vazirlik intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqadi, intellektual mulk obektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qiladi va muhofaza qiladi. Fuqaro yoki tadbirkor intellektual mulk himoyasi yoki muhofazasi yuzasidan aynan Adliya vazirligiga murojaat qilishi mumkin.³ Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi Pf-89-sonli "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda Adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida qayta tashkil etilgan bo'lib, ushbu markaz o'z faoliyatida ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish, mualliflik huquqi obyektlarini saqlashga qabul qilish faoliyatini muvofiqlashtirish, mintaqaviy brendlarni rivojlantirish, oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va boshqa tashkilotlarda yaratilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilinishi yuzasidan targ'ibot tadbirlarini o'tkazish va intellektual mulk sohasidagi ilmiy-tadqiqotlar va boshqa ishlarni tashkil qilish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish kabi vazifalarni amalga oshiradi.⁴

O'zbekistonda intellektual mulk sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, intellektual mulk huquqini himoya qilish sohasida nafaqat milliy huquqiy normalar, balki xalqaro huquqiy normalar bilan ham tartibga solingan bo'lib, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti(BMIT)ning xalqaro konvensiya va shartnomalari shuningdek, Jahon savdo tashkilotining Intellektual mulk huquqini savdo jihatlari bo'yicha bitimi(TRIPS) ratifikatsiya qilinishi kabi islohotlar shular jumlasidandir. Shuningdek eng yangi islohotlarning samarasi sifatida O'zbekiston

³ <https://kun.uz/news/2022/08/13/ozbekistonda-intellektual-mulk-himoyasi-va-uni-tijoratlashtirish-shohjahon-xojayev-bilan-intervyu?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F08%2F13%2Fozbekistonda-intellektual-mulk-himoyasi-va-uni-tijoratlashtirish-shohjahon-xojayev-bilan-intervyu>

⁴ <https://ipcenter.uz/site/index>

Respublikasi intellektual mulkning huquqiy muhofazasi va himoyasi holati bo'yicha AQSH Savdo vakilligining (USTR) 301-maxsus hisobotidagi kuzatuvdagi davlatlar ro'yxatidan (qora ro'yxat) chiqarilgani quvonarli hodisadir. Biron bir davlatning "kuzatuvdagi davlatlar ro'yxati"ga kiritilishi unda intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha jiddiy muammolar mavjud ekanligini ko'rsatadi hamda bu masalaga bevosita chet el korxonalar tomonidan investitsiyaviy faoliyatni amalga oshirishda alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga sezilarni darajada xavf solishi mumkin. Mamlakatimiz ushbu ro'yxatga yigirma to'rt yil oldin, ya'ni 2000-yilda kiritilgan edi. Adliya vazirligi Intellektual mulk departamentining xulosalariga ko'ra oxirgi besh yilda intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini soddalashtirish, ularga bo'lgan huquqlarni samarali himoya qilish, xalqaro shartnomalarga a'zo bo'lish va tashqi aloqalarni rivojlantirish hamda JSTning TRIPS bitimi talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yo'nalishida amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida shunday natijaga erishilgan.

Zotan, Intellektual mulk huquqini himoya qilish hamda himoya qilish choralarini takomillashtirish yuqori ahamiyatga egadir. Bugungi texnologik taraqqiyot jarayonida intellektual mulk har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda, Shundan kelib chiqqan holda, intellektual mulkning iqtisodiyotga keltiradigan foydasini quyidagi misol orqali ko'rish mumkin. Farmatsevtika kompaniyasi yangi dori yaratish uchun tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritisa, ular o'zlarining intellektual mulk huquqlarini himoya qilish uchun preparatni patentlashlari mumkin. Ushbu patent kompaniyaga dori-darmonlarni ma'lum muddatga, odatda 20 yil davomida ishlab chiqarish va sotish uchun mutlaq huquqlarni beradi. Bu vaqt ichida kompaniya ilmiy-tadqiqot ishlariga qo'ygan sarmoyasini qoplashi, klinik sinovlar xarajatlarini qoplashi va potentsial daromad olishi mumkin. Bu farmatsevtika sanoatida innovatsiyalarni rag'batlantiradi, turli kasalliklarni davolashning yangi va samarali usullarini kashf etishga olib keladi. Bundan tashqari, patentlangan dori vositalarini sotishdan olingan daromad ish o'rinlari yaratish, keyingi tadqiqotlar va ishlanmalarga sarmoya kiritish, shuningdek, foydadan to'lanadigan soliqlar orqali iqtisodiyotga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Bu nafaqat farmatsevtika sanoatiga, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 2019-yil AQSHda umurtqa mushak atrofiyasini davolash uchun yangi dori vositasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning patent narxi 2 million AQSH dollaridan oshadi, bu dunyodagi eng qimmat dori hisoblanadi.

Shu o'rinda 2024-yil I chorakda intellektual mulk sohasi bo'yicha yurtimizda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha adliya hisobotiga to'xtaladigan bo'lsak, intellektual mulk obyektlari ro'yxatdan o'tkazilib, huquq egalari 4185 ta patent va guvohnomalar taqdim etilgan, Intellektual mulk huquqini himoya qilish doirasidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 44 nafar huquqbuzar shaxs sud tomonidan ma'muriy

jarimaga tortilgan hamda 145 ta tashkilotga qonun buzilishlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritilgan, Ma'muriy jazolarning umumiy summasi esa 30.430.000 so'm miqdorga yetgan.⁵




Yurtimizda Intellektul mulk huquqini himoya qilish borasida samarali ishlar olib borilmoqda hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish chora- tadbirlari ham ko'rilmoqda. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning misoli sifatida Adliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan "im.adliya.uz " portali intellektual mulk huquqini tartibga soluvchi asosiy mexanizm vazifasini bajarib bermoqda. Ushbu portalda fuqarolik muomalasining ishtirokchilari patent olish, foydali modelga patent olish, sanoat na'munalari uchun davlat xizmatlari, seleksiya yutuqlari uchun davlat xizmatlari, tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish, patent vakillarini ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek patent olingan sanoat mulki namunalari bilan tanishish kabi bir qator intellektual mulk huquqini himoya qilishga qaratilgan xizmatlardan foydalanishlari mumkin.

⁵ Адлия сарҳисоб: 2024 йилнинг 1 чорагида амалга оширилган ишлар. Батафсил инфографикада <https://adliya.uz/uzb/inner-page/vazirlik-faoliyatiga-oid-asosiy-korsatgichlar-va-s/%D0%B0%D0%B4%D0%BB%D0%B8%D1%8F-%D1%81%D0%B0%D1%80%D2%B3%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B1-2024-%D0%B9%D0%B8%D0%BB%D0%BD%D0%B8%D0%BD%D0%B3-1-%D1%87%D0%BE%D1%80%D0%B0%D0%B3%D0%B8%D0%B4%D0%B0-%D0%B0%D0%BC%D0%B0%D0%BB%D0%B3%D0%B0-%D0%BE%D1%88%D0%B8%D1%80>

ADLIYA HISOBOTI: 2024 YIL I CHORAK / ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК СОҶАСИ БЎЙИЧА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИШЛАР

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК ҲУҚУҚИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ДОИРАСИДА:

Маълумот учун:



<p>“Nokia”, “Puma”, “Coca-cola”, “Burger king”, “Imudon” товар belgilariга nisbatan хуқуқлар</p>	<p>фотограф Э. Куртвелиевга тегишли бўлган “Панорама Хивы Ичан Кала рассвет” номли фотосурати бўлган муаллифлик хуқуқлари ҳимоя қилинди – турк эстрадаси вакиллари Маҳсун Қирмизигул, Гунес Гокҳан ҳамда ижодкорлар Абдурауф Олимов, Муҳаммад Юсуф, Жалолиддин Аҳмадалиевларнинг муаллифлик хуқуқлари ҳимоя қилинди</p>
--	---

ИНТЕЛ. МУЛК

Shu o’rinda, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining hisobotiga ko’ra, tashkilotga a’zo davlatlar ichida Xitoyning Intellektual mulk idorasi umumiy patent talabnomalarining 46,8 foizini qabul qilgan bo’lib, Xitoy Xalq Respublikasi Milliy intellektual mulk boshqarmasi (CNIPA) 2022-yilda patentga 1,6 million talabnoma qabul qilingan, bu esa 2021-yilga nisbatan 2,1 foizga ko’p. Beshta eng yaxshi idoralar orasida Xitoy ketma-ket uchinchi yil ariza berishda kuchli o’sishni qayd etgan. Ushbu natijalardan kelib chiqib, Intellektual mulk huquqini himoya qilish mexanizmini Xitoy tajribasi misolida o’rganadigan bo’lsak, Xitoy Xalq Respublikasida Milliy intellektual mulk boshqarmasi (CNIPA) tashkiloti hamda uning maxsus “cnipa.gov.cn” veb portalini mavjud bo’lib, tashkilot intellektual mulk sohasida bir qator funksiyalarni amalga oshiradi. Xitoy Xalq Respublikasi Milliy intellektual mulk boshqarmasi huzuridagi Intellektual mulkni himoya qilish departamenti intellektual mulkni himoya qilish tizimini yaratish bilan bog’liq ishlarni amalga oshirishda tovar belgisiga va patentga oid huquqbuzarliklarni baholash standartlari, tekshirish, baholash va himoya qilish va huquqni qo’llash bo’yicha boshqa tegishli standartlarni shakllantirishni tashkil qiladi, tovar belgilarini ko’rib chiqish, patentni qayta ekspertizadan o’tkazish va haqiqiy emas deb topish kabi ma’muriy qarorlarni qabul qiladi hamda tovar kelib chiqqan joy nomlari va geografik ko’rsatkichlarni, integral mikrosxemalar sxemalarini, farqlovchi belgilarini, Olimpiya belgilarini, Butunjahon ko’rgazma belgilarini va boshqa rasmiy belgilarini himoya qiladi va mahalliy intellektual mulk nizolarini ko’rib chiqish, huquqlarni himoya qilish va nizolar bo’yicha vositachilikka rahbarlik qiladi. Shuningdek, “cnipa.gov.cn” veb portalida intellektual mulk obyektlarining statistik

ma'lumotlari hamda mamlakat hayotida yuz berayotgan intellektual mulk sohasidagi yangiliklar doimiy ravishda joylashtirib boriladi. Bu kabi ishlar aholining huquqiy savodxonligi o'sishida ham katta ahamiyatga egadir.⁶

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Intellektual mulk huquqi innovatsiyalarni rag'batlantirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va jahon iqtisodiyotida mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va bu huquqni himoya qilish uning muhofaza qilinishi va ta'minlanishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, har qanday huquq himoya qilish mexanizmi bilan mustahkamlangan bo'lsagina, uni amalga oshirish mumkin, bu uchun esa aniq o'ylangan va mustahkam davlat siyosatini ishlab chiqish talab etiladi. Intellektual mulk huquqini himoya qilish mexanizmining rivojlanishida aholining huquqiy savodxonligini oshirish hamda sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun jazo tizimini takomillashtirish ham eng muhim ishlardan biridir. Buning uchun Adliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan "im.adliya.uz" portalini yanada takomillashtirish, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan keng aholini xabardor qilish maqsadga muvofiqdir. Har qanday inson huquqlarining himoya qilinishi fuqaroning o'ziga hamda davlatga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Ionas V. L., Proizvedenie tvorchestva v grajdanskom prave. M., 197
2. Омон ОҚЮЛОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК ХУКУКИ. И.М.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти. Тошкент, 2005 йил,
3. <https://lex.uz/acts/-111189>
4. <https://lex.uz/docs/5914998>
5. <https://ipcenter.uz/site/index>
6. <https://kun.uz/news/2022/08/13/ozbekistonda-intellektual-mulk-himoyasi-va-uni-tijoratlash-tirish-shohjahon-xojayev-bilan-intervyu?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F08%2F13%2Fozbekistonda-intellektual-mulk-himoyasi-va-uni-tijoratlash-tirish-shohjahon-xojayev-bilan-intervyu>
7. <https://english.cnipa.gov.cn/>

⁶ <https://english.cnipa.gov.cn/>